

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'l

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI.....	106-112
<i>Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich</i> ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	113-122
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI HAMDA IJTIMOY ZARURATI	123-132
<i>Марданов Жасурбек Отабек угли</i> УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ	133-138
<i>Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li</i> FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI	139-143
<i>Jumumbetov Rasul Jengizbayevich</i> GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI	144-150
<i>Suyunov Bobir Bahodirovich,</i> RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK: KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	151-155
<i>Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna</i> ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI	156-163
<i>Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li</i> KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI.....	164-168
<i>Хошимова Юлдузхон Олимжоновна</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ	169-175
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli</i> ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES: THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION	176-180
<i>Aripov Abid Adilovich</i> O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI.....	181-189
<i>Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi</i> ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI: XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI.....	190-197
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	198-204
<i>Abdullayeva Parvina Baxrillovna</i> RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI	205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI	213-222
---	---------

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	223-233
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI: NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA").....	234-241
--	---------

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdorovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL VA TEVARAK-ATROF	242-246
---	---------

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI	247-251
---	---------

Temple Chimunya Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS IN CONCRETE	252-265
---	---------

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH SSENARIYLARI	266-271
--	---------

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI	272-277
---	---------

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	278-283
---	---------

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	284-289
--	---------

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI.....	290-294
--	---------

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH	295-300
---	---------

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

CONCEPT AND SOCIAL NECESSITY OF SOCIAL REHABILITATION AND ADAPTATION OF PERSONS RELEASED FROM PENITENTIARY INSTITUTIONS

Egamberdiyev Vokhidjon Otabekovich,

Senior Lecturer of the Department of Crime Prevention Activities at the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Lieutenant Colonel

E-mail: info@akadmvd.uz

Abstract. This article explores the theoretical and legal essence of the concept of social rehabilitation and adaptation of persons released from penitentiary institutions. The content and interrelationship of the categories of social rehabilitation and social adaptation, as well as their role in reintegrating former inmates into society, have been scientifically analyzed. Additionally, the main challenges encountered in the social adaptation of released persons are highlighted, including employment, integration into the social environment, and legal and psychological support. The article substantiates the social necessity of rehabilitation from the perspectives of ensuring public safety, preventing recidivism, and protecting human rights and legitimate interests. The research results serve as a theoretical foundation for developing scientific and practical proposals aimed at improving work with released persons in the penitentiary system.

Keywords: execution of punishment, individual, offense, public safety, social, rehabilitation, adaptation, social necessity, prevention.

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI HAMDA IJTIMOY ZARURATI

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya. Ushbu maqolada jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va jamiyatga moslashtirish tushunchasining nazariy-huquqiy mohiyati ochib berilgan. Ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish kategoriyalarining mazmuni, o'zaro bog'liqligi hamda ularning jazoni o'tab bo'lgan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ozod etilgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvida uchraydigan asosiy muammolar — ish bilan ta'minlanish, ijtimoiy muhitga kirishish, huquqiy va psixologik qo'llab-quvvatlash masalalari yoritilgan. Maqolada ijtimoiy reabilitatsiyaning ijtimoiy zarurati jamoat xavfsizligini ta'minlash, takroriy jinoyatchilikning oldini olish hamda inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari jazoni ijro etish tizimida ozod etilgan shaxslar bilan ishlashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: jazoni ijro etish, shaxs, huquqbuzarlik, jamoat xavfsizligi, ijtimoiy, reabilitatsiya, moslashish, ijtimoiy zarurat, profilaktika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N14>

Kirish. Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq sohasini takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Aholini qo'llab-quvvatlash, ularga ko'mak berish, muammolarini

manzilli hal etish vazifalari belgilandi. Hozirgi kunda fuqarolarimizning ijtimoiy muammolarini bartaraf etish maqsadida qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan bir qator maqsadli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Sh.M. Mirziyoyev tomonidan "Hayot oldimizga yana qancha sinov va muammolarni qo'yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, demokratik islohotlar yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Oldinga, faqat oldinga qarab boramiz. Va biz bunga har tomonlama qodirmiz. Chunki bugungi xalqimiz – kechagi xalq emas. Bugungi O'zbekiston ham – kechagi O'zbekiston emas"[1], deb islohotlar ortga qaytmas tus olganini ta'kidlagandi.

Ushbu amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning natijasi o'laroq, respublikamizda sud-huquq sohasida huquqiy tushunchalar, ularning ahamiyati, shakllanish va rivojlanish bosqichlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir normalarni qo'llash amaliyotida jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish shular jumlasidandir.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslar birinchi navbatda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirishga muhtoj bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, biz jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxs, ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berish muhim hisoblanadi deb o'laymiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Huquqiy adabiyotlarda ilgari sudlangan shaxs iborasi ishlatilganda shaxsning ilgari jinoyat sodir etganligi uchun sud tomonidan hukm etilganligidan kelib chiqadigan huquqiy holat tushuniladi. Jazo tayinlangan ayblov hukmi kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan hisoblanadi hamda shaxs huquqbuzarliklar yoki jinoyat sodir etganda huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi[2]. Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni "Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslar" yoxud "Ilgari sudlangan shaxslar" deb turlicha so'zlar bilan ifodalaymiz. Ammo, ushbu ikki tushuncha ham bir ma'noni anglatadi.

Shuningdek, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

- jazoni to'liq o'tab bo'lgandan so'ng ozodlikka chiqqan shaxslar;
- muddatidan ilgari shartli ozod qilinganda;
- jazo yengilrog'i bilan almashtirilganda;
- kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi tufayli;
- amnistiya yoki afv etilganligi tufayli;
- oqlangan (reabilitatsiya qilingan) shaxslardir.

Biroq, bugungi kunda "Ilgari sudlangan shaxs" tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" Qonuni(2014)ning qabul qilinishi bilan muayyan darajada aniqlik kiritildi[3].

Xususan, ushbu qonunning 25-moddasida ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida amalga oshiriladigan huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari keltirilgan. Jumladan:

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi

sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish; huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha maxsus tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish; ozodlikdan mahrum jazosini o'tayotgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga va ijtimoiy moslashtirishga tayyorlash; ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish; ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini tashkil etayotgan tashkilotlarni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va qonunchilikka muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkinligi keltirilgan[4].

Muhokama. Bugungi kunda jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarning muammolarini aniqlash va hal qilishga, ularga maqsadli ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan, munosib yashash huquqini ta'minlash maqsadida, jazoni o'taganlarni jamiyatda bir guruhga tushib qolish xavfini kamaytirish va ularning ozodlikda jamiyatga moslashishi, ularning keyingi xatti-harakatlari va oxir-oqibat retsidivizmni oldini olish ko'p jihatdan ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish tadbirlarining samaradorligiga bog'liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslar birinchi navbatda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirishga muhtoj bo'lganlar hisoblanadi. Shundan kelib chiqib biz jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish kabi tushunchalarni ma'lum darajada ochib berish muhim hisoblanadi deb o'ylaymiz.

Huquqiy hujjatlarda *"ijtimoiylashish"*, *"desotsializasiya"*, *"resotsializasiya"*, *"reabilitatsiya"*, *"ijtimoiy reabilitatsiya"*, *"ijtimoiy moslashish"* tushunchalari aholining turli toifalari: kasallar, qariyalar, ayollar, voyaga yetmaganlar, doimiy yashash joyiga ega bo'lmaganlar, zo'ravonlikka uchragan, odam savdosi qurboni bo'lgan va jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarga davlat idoralari, turli nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik, va pedagogik yordam ko'rsatadigan faoliyatdir.

Izohli lug'atlarda, *"ijtimoiy"*[5] so'zining ma'nosi *"inson"*, *"jamo"*, *"jamiyatga oid"*, *"jamiyat hayotiga oid"*, *"ijtimoiy tuzum"*, *"ijtimoiy taraqqiyot"*, *"ijtimoiy ishlab chiqarish"*, *"ijtimoiy munosabatlar"* degan ko'plab ma'nolarni anglatadi.

Shuningdek, *"ijtimoiy"* so'z tushunchasi inglizcha *"social"* so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tiliga aynan tarjima qilinganda *"inson va jamiyat hayotiga oid"* degan ma'noni anglatadi[6].

O'zbek tilining izohli lug'atida *"reabilitatsiya"* [7]. so'zining ma'nosi ikki xil ko'rinishda keladi: *birinchisi* tibbiy yo'nalishda organizmning izdan chiqqan funksiyalarini hamda bemorlar va nogironlar mehnat qobiliyatini tez va to'la-to'kis tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; *ikkinchisi* jinoyat sodir etishda asossiz gumon qilingan yoxud ayblangan shaxsning pok nomi, sha'ni va qadr-qimmatining huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari tomonidan tiklanishi deb ta'kidlangan.

Shuningdek, rus tilining yangi izohli lug'atida *"reabilitatsiya"* [8] tushunchasi ta'rifi *"avvalgi yaxshi obro'ga"*, yoki *"oldingi huquqlarga qaytish"*, *"qonuniy huquqlarini tiklash"*, *"yaxshi nom"* *"avvalgi obro'-e'tiborni tiklash"* degan ma'nolarni bildiradi.

Rus ensiklopediyasida *"reabilitatsiya"* so'zi bu *"huquqlarni tiklashni"*[9] anglatadi. Ushbu so'zning yana bir ma'nosi *"jamoatchilik munosabatlari funksiyalarini yaratish va tiklashda yordam berish"*[10] deb keltirilgan.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, *“reabilitatsiya”* tushunchasi lotin tilida *“restitutio in integrum”*[11] *“avvalgi huquqlarni tiklash”*, *“sobiq davlatni tiklash”* degan ma'nolarni anglatib, dastlab Rim huquqida paydo bo'lgan.

XIX asrning oxirigacha yuridik fanlarda, reabilitatsiya jazoni ijro etish muassasasida jazo o'tayotgan shaxslarni avvalgi holatiga qaytarish, afv etishning bir turi sifatida ko'rilgan.

Garchi tarixan reabilitatsiya haqidagi g'oyalarning paydo bo'lishi jinoyat huquqi fanining evolyutsiyasi bilan bog'liq bo'lsa-da, uzoq vaqt davomida deyarli XX asr boshlariga qadar, reabilitatsiya instituti faqat afv etish va amnistiya bilan bog'liq holatlarni anglatgan. A.F.Kistiakovskiy[12] ta'kidlaganidek, kechirim aybning to'liq yoki bir qismini kechirish va jazoni bekor qilish yoki yumshatishdir. Afv etish ko'lami, shakli va ta'siriga qarab, afv etish, amnistiya va reabilitatsiya turlariga bo'lingan. Kechirimning bir turi sifatida reabilitatsiya mahkumni avvalgi holatiga qaytarishdan iboratdir. Bu jazoni o'tagan va to'liq siyosiy va fuqarolik huquqiy layoqatga qaytishga loyiq bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilgan.

Mazkur tushuncha yuzasidan, Konstitutsiyaviy huquq ensiklopedik lug'atida *“reabilitatsiya”*[13] tushunchasi *“shaxsning yaxshi nomini”*, *“buzilgan yoki cheklangan huquqlari”* va *“qonuniy manfaatlarini tiklash”* ma'nolarini anglatadi.

Shu o'rinda, Amerika qonunlari hamda g'arb ensiklopediyasini o'rganganimizda *“reabilitatsiya”*[14] tushunchasi mahkumni jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgandan so'ng, hayotga tayyorlashga qaratilgan huquq yoki qobiliyatlarni tiklash deb ta'riflangan.

Reabilitatsiya tushunchasi fanlararo hodisa sifatida mavjud bo'lgan g'oyalarga mos kelmaydigan juda munozarali ta'riflar ham mavjud bo'lib, *“tiklash”*, balki ilgari mavjud bo'lgan qobiliyat va boshqa maqomlarni qaytarish degan ma'nolarni ham anglatadi.

Shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishning nazariy va amaliy masalalarini jinoiy ijroiya, penitensiar, pedagogika va penitensiar psixologiya fanlarida ham tadqiq etib kelingan.

Nazarimizda, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarga nisbatan *“ijtimoiy reabilitatsiya qilish”* tushunchasi ishlatilganda, bevosita uni axloqan tuzatish yoki sudlanganlik holatini olib tashlash singari choralarda namoyon bo'ladi. Shu o'rinda *“moslashtirish”* esa bevosita jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni o'qishga yoki ishga joylashtirish, ma'lum muddatga uy-joy bilan ta'minlash, hokimiyatlar huzuridagi maxsus komissiyalar tomonidan moddiy, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan huquqiy yordam berish kabi holatlarda o'z ifodasini topadi. Nazarimizda jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya jarayonini moslashuv jarayoni bilan birgalikda ko'rib chiqish kerak.

“Moslashish” so'zi o'zbek tili va adabiyotida fe'lning orttirma nisbati hisoblanadi[15] lekin *“moslashish”*[16] atamasi gumanitar fan tabiatshunoslikdan kirib kelgan bo'lib, organizmlarning (individuallar, populyatsiyalar, turlar), atrof-muhit sharoitlariga moslashish jarayoni, tuzilishi va funksiyalari tushuniladi[17].

Falsafiy adabiyotlarda *“moslashish”* tushunchasi *“moslashish”*, *“iqlimlashtirish”*, *“me'yor va ideallarni idrok etish”*, *“ko'nikish”*, *“jamoaga qo'shilish”* deb qaraladi[18].

Ushbu atama bugungi kunda yuridik adabiyotlar va tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda keng qo'llaniladi va jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxslarning jamiyatdagi xatti-harakatlarini qayta tiklash imkoniyati va zarurati sifatida ta'riflanadi[19].

Shuningdek, Huquqiy psixologiya adabiyotlarida jazoni ijro etish muassasasida jazo o'tayotgan shaxslarning ijtimoiy moslashuv muammolari o'rganilib, yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish jarayoni salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi ta'kidlangan.

Milliy qonunchiligimiz normalari tahlili hamda tarixini o'rganganimizda reabilitatsiya qilish institutiga nisbatan o'ziga xos yondashuv mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

"Reabilitatsiya" huquqiy davlat, adolatli fuqaroviy jamiyat qurishning muhim shartlaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida shaxsning huquq va qonuniy manfaatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, shuningdek, xalqaro hujjatlar bilan muhofaza qilinadi va kafolatlanadi. 1930-1940-yillardagi qatag'on qurbonlarining xotirasini abadiylashtirishda hamda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tiklashga qaratilgan normativ hujjatlarda reabilitatsiya qo'llash nazarda tutilgan.

Shuningdek, sho'rolar davrida mamlakatimizning ayrim fuqarolari ham reabilitatsiya qilinib, olis hududlarga yuborilgan. Fuqarolarimizga nisbatan g'ayriqonuniy protsessual majburlov choralari qo'llangan, chunonchi ushlab turilgan, qamoqda saqlangan, egallab turgan lavozimidan chetlashtirilgan, tibbiy muassasaga joylashtirilgan bo'lsa, unga yetkazilgan moddiy va ma'naviy ziyon qoplanishi, uning barcha huquqlari tiklanishi shart bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini o'rganganimizda *"ijtimoiy"*, *"reabilitatsiya"*, va *"moslashtirish"* tushunchalar so'z birikmasidan kelib chiqqan *"ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish"* tushunchasi O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risi"dagi O'RQ 371-son (2014) qonunining 3-moddasida keltirilgan. *"Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish"* bu huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui degan huquqiy ta'rif berilgan[20].

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi 7-bo'lim 37-bob[21]da "reabilitatsiya asoslari va oqibatlari", 38-bob[22]da esa "reabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan ziyonni qoplash va uning boshqa huquqlarini tiklash tartibi" ham keltirilgan.

Bugungi kunda *"ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish"* tushunchasi huquqiy siyosat terminologik apparatining yirik, ko'p qirrali toifalaridan biri bo'lib, nafaqat huquq nazariyasida, konstitutsiyaviy, fuqarolik, mehnat va boshqa sohalarida ham qo'llaniladi. huquqning boshqa sohalar qatori huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Bu borada G.Blumer o'z qarashlarida nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutning yeng qiyin muammosi bu aynan "ilmiy rivojlanishning muhim sharti bo'lgan aniq tushunchalar bo'lmagan taqdirda kelib chiqishini ta'kidlaydi"[23]. Hatto tegishli ijtimoiy fanlar vakillari ham ijtimoiy moslashuvning turli jihatlar haqida gapirganda bir-birlarini tushunishda qiynaladilar. Ko'pincha bu holat ijtimoiy moslashuvning asosiy tushuncha sifatida diametral qarama-qarshi ta'rifi bilan bog'liq.

Afsuski, xorijiy adabiyotlarida bizni qiziqtirgan ijtimoiy moslashuv jarayonlari va hodisalari hali ham shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy moslashuvining murakkabligi va dialektik nomuvofiqligini, aniq tushunchalarga ega bo'lmagan tushunchalar va toifalarda ifodalanishidir.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni jamiyatda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish muammolarini o'rganish uchun sotsiologik tadqiqotlarni tegishli ilmiy

fanlar bilan to'g'ri birlashtirish bilan bog'liq bo'lgan kompleks yondashuvlarni o'rganish juda muhimdir.

Jamiyatdagi ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirishga bag'ishlangan nazariy qarashlarni tahlil qilganimizda, Chikagodagi Amerika sotsiologiyasi maktabi asoschilari E.Berdjess va R.Park moslashish, noto'g'ri moslashish, shuningdek, deviant xulq-atvorni o'rganishda an'anaviy bo'lib qolgan moslashish muammolarini, T.Parsonsom "Ijtimoiy hodisa sifatida moslashish muammolarini", G.Adorno va J.Gurvichu "Ijtimoiy hodisa sifatida moslashish g'oyasini, R.Merton "Ijtimoiy o'zgarish", P.Blau va R.Glirson "Ijtimoiy almashinuv" hamda E.Giddensa va Yu.Xabermasa tomonidan "Tuzilish nazariyalari" o'rganilib chiqilgan.

Biroq, ijtimoiy moslashuv nazariyasining asoslari bevosita L.Bristola, G.Chatertona-Xila, Dj.Tomsona, M.Torpa asarlari tomonidan qo'yilgan. Moslashuv hodisasini o'rganishda Dj.G.Mid, D.Moreno, R.Linton, T.Parsons, T.Nyukomblar asosan "Rol nazariyasi" nuqtai nazaridan shaxslarning jamiyatdagi mavjud me'yorlarga moslashish jarayoni sifatida ko'rib chiqilgan.

Ingliz sotsiologi B.Xoras ba'zi belgilar (moslashishning xususiyatlari) moslashuvchan, yoki neytral bo'lishi mumkinligi, ya'ni ular moslashishni amalga oshirishi yoki oshirmasligiga e'tibor qaratdi. Har qanday vaqtda, ilgari moslashuvchan bo'lgan shaxslar, yangi vaziyatda moslashuvchan bo'lmasligi mumkinligini ta'kidlaydi[24].

Xorijiy adabiyotlarda "ijtimoiy moslashuv" tushunchasining xilma-xilligi u yoki bu darajada sotsiologik namunaga intiladi. Bundan tashqari, turli xil tasniflarda allaqachon an'anaviy bo'lib kelgan ushbu namunalar turli yo'llar bilan belgilanadi. Bular, "obyektivizm" va "subyektivizm", "makro" va "mikro sotsiologiya", "normativ" va "interpretativ" namunalar o'z navbatida, interaksionizm namoyondalari Dj.G.Mida, G.Blumera, hamda fenomenologik va germeneytik yo'nalishdagi sotsiologlar va faylasuflar E.Gusserl, G.G.Gadamer, I.Gofman, A.Shyus, P.Berger, T.Lukman, L.Vitgenshteyn, P.Rikyorlarning asarlarida to'liq aks etgan.

Xususan, L.Filips tomonidan ishlab chiqilgan moslashuvning interaksionistik konsepsiyasiga ko'ra, moslashuvning barcha turlari quyidagicha belgilangan, *birinchidan*, ichki psixologik omillar; *ikkinchidan* tashqi muhit bilan bog'liq omillardir[25]. Shuningdek, interaksionistlar shaxsning samarali moslashuvi bu inson jamiyatning talablari va minimal talablariga javob beradigan turi deb ta'kidlagan.

Ta'kidlash joizki, sotsiologiyaning klassik namoyondasi E.Dyurkgeymning atamalar lug'atida "ijtimoiy moslashuv" tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi, "ijtimoiy" bu individ tomonidan ijtimoiy me'yorlarning o'zlashtirilishi, individning moslashuvi esa jamiyatga moslashuv jarayoni bo'lib, "moslashuv" va "ijtimoiylashuv" tushunchalari sinonimlar. Pozitivizm konsepsiyasi ijtimoiy moslashuv nazariyasini ochib berish uchun zarur, lekin yetarli bo'la olmaydigan metodologik asos sifatida talqin etgan[26].

Nemis sotsiologi, faylasuf M.Veberning fikricha bir vaqtning o'zida bir qancha o'zaro bir-birini inkor etuvchi me'yorlar ham bo'lishi ehtimoli mavjudligini ta'kidlagan[27]. Ushbu yondashuv individning shakllanishida, me'yorning ahamiyati hamda me'yorning shakllanishi individning rolini ko'rsatadi.

Shuningdek, T.Parsoncning "ijtimoiy moslashuv" borasidagi qarashlari ham qiziqarli. Uning "muvozanatdagi jamiyat" konsepsiyasi individning mazkur muhitda ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan muhim ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishi davomida individ hamda ijtimoiy muhit ehtiyojlari orasidagi muvozanatga bag'ishlanadi. Muvozanat bor ekan jamiyat barqaror, muvozanat bo'lmasa ijtimoiy nizo sodir bo'ladi. Jamiyatning muhim vazifasi ushbu

muvozanatga intilish, garchi T.Parsoncning fikricha, absolyut muvozanatga erishib bo'lmaydi. Individding ehtiyojlari va ijtimoiy me'yorlar dinamik qiymat bo'lib, ularning mos kelishi kutilmaganda qisqa muddatgagina sodir bo'lishi mumkin. T.Parsons "moslashuv" va "ijtimoiy muhit" atamalaridan foydalanib, inson har gal umuman jamiyat bilan emas, balki uning katta bo'lmagan qismi bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi, deb ta'kidlagan[28].

Amerika sotsiologi R.Merton o'zining tadqiqotlarida "ijtimoiy moslashuv" tushunchasi haqida to'xtalar ekan, u ijtimoiy moslashuvni tasniflashda asosiy eng muhim sharoitlarni ta'kidlagan: ijtimoiy moslashuv inson tomonidan ijtimoiy me'yorlarning o'zlashtirilishini taqozo qilishi shart emas degan fikrni ilgari surgan. Bundan kelib chiqadiki, shartsiz ravishda insonning ijtimoiy me'yorlar bilan bog'liq bo'lgan va ularga tobe bo'lgan ijtimoiy moslashuvi ushbu me'yorlarning aksi yoki ularning paydo bo'lishiga sababchi bo'lmay, jamiyatdan individga emas, balki individdan jamiyat tomon yo'naltiriladi.

Shu bilan birga R.Merton deviant xulq-atvorning ijtimoiy va madaniy manbalarini o'rganib, moslashish turlariga e'tibor qaratgan, hamda moslashuvning 5 turini taklif qilgan. Jumladan: muvofiqlik, innovatsiya, ritualizm, retreatizm hamda isyondir deb ta'kidlagan[29].

Natija. Ijtimoiy aniqlikni yaratish bo'yicha ijodkorlardan bo'lgan P.Berger va T.Lukmanlar ilmiy faoliyatida "ijtimoiy moslashuv" tushunchasi chuqur o'rganganligini ko'rishimiz mumkin. Ularning fikrlaricha, shaxs rivojlanishining ba'zi davrlaridan boshlab inson o'zi uchun ijtimoiy me'yorlarni o'rnini bosuvchi nimalarnidir yaratadi hamda o'z faoliyatida ulardan foydalanadi. Bunda obyektiv mavjud bo'lgan olam hamda insoniyat tomonidan yaratilgan olamning mos kelmaydigan vaziyati yuzaga keladi. Moslashuv esa ushbu mazmun-mohiyat borasida uyg'unlashish, o'zaro muvozanatga erishish uchun mo'ljallangan[30].

Shu o'rinda, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari olimlarining fikrlarini tahlil qilganimizda, "ijtimoiy moslashuv" tushunchalarini ilmiy o'rganganligini alohida e'tirof etish joiz. O.A.Vlasovning fikricha, ijtimoiy moslashuvning funksional mohiyati, eng avvalo shaxsning hamda muhitning saqlanilishi nuqtai nazaridan insonlar hayoti faoliyati jarayonida shaxslararo aloqalar hamda munosabatlari ifodalanadi deb ta'kidlagan.

Yana bir olim L.A.Gordon ta'kidlashicha ijtimoiy moslashuvning mobillashtiruvchi funksiyasini alohida ta'kidlab, moslashuv nafaqat alohida elementlarni qabul qilish, balki jamoatchilik munosabatlarining o'zgaruvchan yaxlit tizimini o'zlashtirish, shuningdek favquloddagi vaziyatlarni yenga bilish qobiliyatida ifodalanadi deb o'z fikrlarini bildirgan.

Shuningdek, M.A.Shabanovning fikricha, moslashuvning funksiyasi quyidagilarda ifodalanadi: individ nafaqat tirik qolish, balki o'sish, unish imkoniyatiga ega bo'ladi, makro-muhit esa o'zini namoyon qilish hamda yanada yuqorilab ketuvchi bosqichga o'tish imkoniyatini beradi. P.S.Kuznetsov ham shunga o'xshash fikrni bildiradi: "Moslashuvning maqsadi shaxsning rivojlanishiga erishish, ontogenetik nuqtai nazardan bu ehtiyojlarning o'sishi va yuksalishi, filogenetik nuqtai nazardan esa tashkilotchilik, madaniyat darajasini oshirishdan iboratdir" deb ta'kidlagan[31].

Qolaversa olimlar I.S.Diskin va Ye.M.Avramovalar e'tibor qaratgan yana bir masala, bu ijtimoiy noaniqlik va ijtimoiy harakatlarning mahsuldor modeli mavjud bo'lmagan sharoitda moslashuvning rag'batlantiruvchi funksiyasining ochilishidir[32]. Ularning fikricha, bu insonlarning nafaqat, mavjud bo'lgan vaziyatga anglanilgan tarzda mo'ljal ola bilish, balki juda muhim bo'lgan o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini amalga oshirish maqsadida ijtimoiy xulq-

atvorning munosib modelini ishlab chiqish va turli resurslardan oqilona tarzda foydalanish kabi qobiliyatida ifodalanadi. Ijtimoiy moslashuv funksiyalariga oid yuqoridagi barcha fikrlarni umumlashtirgan holda, aytish mumkinki, aksariyat olimlar rivojlanish funksiyasi emas, balki shaxslarning ijtimoiy mexanizmlarini shakllantiruvchi funktsiyani alohida ta'kidlashgan.

Fikrimizcha, ushbu funktsiya ostida, *birinchidan*, xulq-atvorning yangi strategiyalarini o'zlashtirish, *ikkinchidan*, ushbu strategiyalarni me'yoriy tartibga solib, shaxs uchun axloqan ma'qul bo'lgan yangi me'yor va qadriyatlarni singdirish, *uchinchidan*, individning o'zini baholash tarzi va intilishlarini nafaqat o'z imkoniyatlari, balki ijtimoiy-iqtisodiy aniqlik bilan uyg'unlashuviga erishuvini tushunish lozim. Bir qancha olimlar har ikki tomon talablari va natijalari o'zaro uyg'unlashuvini ijtimoiy moslashuvning natijasi sifatida talqin qiladilar.

Xulosa. Shuningdek, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslar ustidan ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish faoliyatini tartibga solishning davlat-huquqiy mexanizmining mukammal emasligi jinoyatlarning takrorlanishi sabablaridan biridir. Ularga ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va pedagogik yordam ko'rsatishning aniq huquqiy mexanizmsiz ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish faoliyati jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Yuridik adabiyotlarimizda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish faoliyati tushunchasi to'liq yoritilmagan. Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish faoliyatining tuzilishi bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar mavjud emas. Bunday vaziyatda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirishning xususiyatlari va sifatlarini o'rganmasdan, uni amalga oshirishning ilmiy asoslangan mexanizmini ishlab chiqish mumkin emas.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Инсон ҳуқуқларини таъминлашнинг янги даври // <https://ombudsman.uz/uz/docs/inson-huquqlarini-taminlashning-yangi-davri>
2. Назаров Носир Муродуллаевич Ички ишлар органларининг илгари судланган шахслар билан ишлаш фаолиятини ташкил этиш //C:/Users/admin/Downloads/3703%20(1).pdf
3. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги <https://lex.uz/docs/2387357>
4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги <https://lex.uz/docs/2387357>
5. Бегматов Э., Мадвалиев А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (электрон манба: https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati Мурожа-ат вақти: 07.11.2022й)
6. Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот-Шукр / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 194 (608) б
7. <https://izoh.uz/uz/word/reabilitatsiya>
8. Ефремова Т.Ф. Новый словарь русского языка. Толково-словообразовательный. В 2 т. Т. 2 / Т.Ф. Ефремова. — Москва : Рус. яз., 2000.
9. От позднелатинского rehabilitatio - восстановление (См.: Юридический энциклопедический словарь / Под ред. А.Я. Сухарева. - 2-е изд., доп. - М.: Советская энциклопедия, 1987.-С. 40б.
10. См.: Советский энциклопедический словарь / Под ред. А.М. Прохорова. 2-е изд. — М.: Советская энциклопедия, 1983. - С. 1103.

11. Restitutio in integrum (лат.) — восстановление в прежних правах, восстановление в прежнем состоянии.
12. Кистяковский А.Ф. Элементарный учебник общего уголовного права с подробным изложением начал русского уголовного законодательства. Часть общая / А.Ф. Кистяковский. — 3-е изд., печ. без перемен со 2-го. — Киев : Ф.А. Иогансон, 1891. — 892 с.
13. Конституционное право : энцикл. слов. / отв. ред. С.А. Авакьян. — Москва : Норма, 2001. — 688 с.
14. Розенко С.В. Реабилитация нацизма: новые основания уголовной ответственности / С.В. Розенко // Юридическая наука и правоохранительная практика. — 2014. — № 3 (29). — С. 80–85.
15. <https://izoh.uz/word/moslashtir>
16. Адаптация - от лат. adaptation - приспособление (см.: Булыко А.Н. Большой словарь иностранных слов. 35 тысяч слов. Изд. 2-е, испр. -М.: Мартин, 2008. - С. 16).
17. См.: Большая Советская энциклопедия. Т. 1. 3-е изд. - М., 1969. - С. 622.
18. См.: Философские проблемы теории адаптации / Под ред. Г.И. Царегородцева. - М., 1975.-С. 33.
19. См.: Общая теория социальной адаптации лиц, освобожденных от отбывания наказания. - Харьков-Запорожье, 2002. — С. 14.
20. Ўзбекистон Республикаси “Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғриси”даги ЎРҚ 371-сон (2014) қонун//<https://lex.uz/docs/2387357>
21. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-Процессуал Кодекси//<https://lex.uz/docs/111460#255157>
22. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-Процессуал Кодекси//<https://lex.uz/docs/111460#255157>
23. Цит. по Хэммерсли М. Проблема понятия: Герберт Блумер: О соотношении между понятиями и фактами // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. — Сер. 11. Социология РЖ / РАН, ИНИОН. М., 1993. -№ 1.- С. 11.
24. Беккер Г. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории. Изд-во: ГУ ВЭШ, 2003. - 672 с.; Парсонс Т. О структуре социального действия. Монографическое издание. 2-е изд. М.: Академ.проект, 2002. - 880 с.; Адорно Т.В. Эстетическая теория. М.: Изд-во «Республика». Серия «Философия искусства», 2001. - 527 с.; Бачинин В.А., Сандулов Ю.А. История западной социологии. Учебник - СПб.: Изд-во «Ланк», 2002. - 307 с.; Bristol L.M. Social Adaptation. - Cambridge: Mass Press, 1915.
25. Р. 18.; Chatterton-Hill G. Heredity and Selection in Sociology. - London, 1907. - P. 29.; Tomson J.A. Darwinism and Human Life. - Ed. By M.R. - New Haven, 1924. - P.31.; Organic Adaptation to Environment. / Ed. By M.R. Torpe. - New Haven, 1924. - P.26.; Култыгин В.П. Классическая социология (Дж. Г. Мид). М.: Наука, 2000. - 526 с.; Морено Я.Л. Социометрия: Экспериментальный метод и наука об обществе. Изд-во Академический проект, 2004 - 217 с.; Морено Я.Л. Социометрия: Экспериментальный метод и наука об обществе («концепции») Изд-во «Академ. проект», 2001. - 383 с.; Parsons T. Social Systems and Subsystems // The International Encyclopedia of Social Sciences, 1968 - v.15.; Ньюкомб Н. Развитие личности ребенка / Н. Ньюкомб. - 8-е изд. СПб.: «Питер», 2003. - 640 с.; Яницкий М.С. Адаптационный процесс: психологические механизмы и закономерности динамики. Уч. пособие. 1999. - С. 30.; Horace B. English and Psychoanalytical Terms. A Guide to Usage. - Longmont, 1958. 23 CM.: L.Philips, Human adaptation and his failures. Academic Press, N-Y&London, 1968.

26. Дюркгейм Э. Ценностные и реальные суждения / Э. Дюркгейм // Социологические исследования. 1991. №
27. Вебер М. Основные социологические понятия / М. Вебер // Избр. произведения. М., 1990
28. Парсонс Т. Функциональная теория измерения / Т. Парсонс // Американская социологическая мысль. М., 1994.
29. Р.Мертон//<https://studfile.net/preview/7654017/page:13/>
30. Бергер П. Социальное конструирование реальности: трактат по социологии знания /П. Бергер, Т. Лукман. М., 1995.
31. Кузнецов П.С. Адаптатсия как функция развития личности / П.С. Кузнецов. Саратов, 1991.10 с.
32. Дискин И.С. Адаптатсия населения и элит (институциональные предпосылки) / И.С. Дискин, Е.М. Авраамова// Общественные науки и современность. 1997. № 1.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).